

MOLIVIY HISOBOTLARNING QAYTA KO'RIB CHIQILISHIDA XALQARO TALABLARGA RIOYA ETILISHI ZARURLIGI

Xolmirzaev Ulug'bek Abdulazizovich

Namangan muhandislik-qurilish instituti
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Madaliev Muzaffar Ravshanbekovich

NamMQI magistranti

ANNOTATSIYA

Maqolada korxonalarning moliyaviy hisobotlarida pul va unga tyenglashtirilgan mablag'lar haqidagi axborotni xalqaro standartlar asosida aks ettirish masalari tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: pul ekvivalentlari, jami pul mablag'lari, cheklangan va cheklanmagan tavsifdagi pul mablag'lari, buxgalteriya balansi, moliyaviy aktiv.

АННОТАЦИЯ

В статье исследуются вопросы отражения информации о деньгах и приводимых к ним средствах в бухгалтерской отчетности предприятий на основе международных стандартов.

Ключевые слова: денежные эквиваленты, общая сумма денежных средств, ограниченные и неограниченные денежные средства, баланс, финансовый актив.

ABSTRACT

In the article, the issues of reflecting the information about money and funds reduced to it in the financial statements of enterprises are studied based on international standards.

Keywords: cash equivalents, total cash, restricted and unrestricted cash, balance sheet, financial asset.

Mamlakatimizda korxonalarda zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Korxonalarda strategik boshqarish va faoliyatining zamonaviy darajadagi moliyaviy nazoratini ta'minlash uchun ular

tomonidan xalqaro standartlar asosida audit va moliyaviy hisobot axborotini nashr qilish vazifasi qo‘yilmoqda.

Muvofiq ravishda aktsiyadorlik jamiyatlarining moliyaiy hisobotlari qayta ko‘rib chiqilishi masalalari ham xalqaro standartlarga mos ravishda amalga oshirilishi lozim. Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari moliyaviy hisobotlarning qayta ko‘rib chiqilishi quyidagi hollarda amalga oshirilishini nazarda tutadi va tegishli qoidalarni belgilab beradi:

- Hisobot sanasidan keyingi hodisalar (10-sonli MHXS);
- Fundamental xatolar va hisob siyosatidagi o‘zgarishlar (8-sonli MHXS);

10-sonli MHXS “Hisobot sanasidan keyingi hodisalar” quyidagi atamalarni qo‘llaydi.

Hisobot sanasidan keyingi hodisalar – bu qulay va noqulay hodisalar bo‘lib, ular hisobot sanasi bilan moliyaviy hisobotlar tasdiqlanishi sanasi oralig‘ida sodir bo‘ladi. Bu hodisalarning ikki turini farqlaydilar:

- A) hisobot sanasiga mavjud shart-sharoitlarni tasdiqlovchi hodisalar (hisobot sanasidan keyingi tuzatuvchi hodisalar);
- B) hisobot sanasidan keyingi shart-sharoitlar to‘g‘risida guvohlik beruvchi hodisalar (hisobot sanasidan keyingi tuzatish kiritilmaydigan hodisalar).

Moliyaviy hisobotlarning tashqariga chiqarish uchun tasdiqlanishi jarayoni boshqarish tarkibiy tuzilishiga, normativ talablarga, moliyaviy hisobotlarni tuzish tamoyillari va pirovard rasmiylashtirilishiga bog‘liq bo‘ladi. Ba’zi hollarda moliyaviy hisobotlar ishlab chiqilishi bilanoq aktsiyadorlarga tasdiqlash uchun taqdim etilishi lozim, bunda hisobotlar tuzib bo‘linishi bilanoq chetga chiqarish uchun tasdiqlangan hisoblanadi. Agar moliyaviy hisobotlar tasdiqlash uchun kuzatuv kengashiga taqdim etilishi lozim bo‘lsa, u holda kompaniya rahbariyati moliyaviy hisobotlarni kuzatuv kengashiga taqdim etishga ruxsat bergen kun moliyaviy hisobotlarning chetga chiqarish uchun tasdiqlangan kun hisoblanadi.

Hisobot sanasidan keyingi tuzatuvchi hodisalar bo‘yicha tan olingan summalarga moliyaviy hisobotlarga tuzatishlar kiritish lozim. Moliyaviy hisobotlarda tan olingan hisobot sanasidan keyingi tuzatish kiritilmaydigan hodisalar summasi bo‘yicha esa tuzatishlar kiritilmaydi.

Ulushli dastaklar egalariga (xususan aktsiyadorlarga) hisobot sanasidan sing tavsiya etilgan yoki e’lon qilingan dividendlar hisobot sanasiga kompaniyaning majburiyatları tarkibida tan olinmasligi lozim. Ayni paytda 1-sonli MHXSga muvofiq hisobot sanasidan keyin, lekin moliyaviy hisobotlar chetga chiqarish uchun tasdiqlanishiga qadar tavsiya etilgan yoki e’lon qilingan dividendlarning hajmi

haqidagi axborotni ochib berishga majbur. Standart mazkur axborotni ikki xil tarzda ochib berishga ruxsat beradi: A) buxgalteriya balansida kapitalning alohida qismi sifatida; yoki B) moliyaviy hisobotlarda izohlarda.

Hisobot sanasidan keyingi rahbariyat kompaniyani tugatish yoki faoliyatini to‘xtatishga qaror qilsa, yoki bunga oqilona muqobil qaror yo‘q deb hisoblasa, moliyaviy hisobotlarni faoliyatning uzluksizligi haqidagi farazdan kelib chiqqan holda tuzmasligi lozim. Agar faoliyatning uzluksizligi haqidagi farazni qo‘llab bo‘lmasa, buning ta’siri shunchalik kuchliki, hisobot yuritishning dastlabki usuli bo‘yicha summalarini tuzatish etarli bo‘lmaydi, balki buxgalteriya hisobi usullari o‘zgartilishi lozim. 1-sonli MHXSga muvofiq moliyaviy hisobotlarni taqdim etishda ularning faoliyatning uzluksizligi to‘g‘risidagi farazga muvofiq tuzilmaganligi yoki kompaniyaning uzluksiz faoliyat ko‘rsata olishiga shubha tug‘diruvchi muhim noaniqlik borligi haqidagi ma’lum ekanligi ochib beriladi.

Agar hisobot sanasidan keyingi tuzatishlar kiritilmaydigan hodisalar moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarning to‘g‘ri xulosaga kelishlari va qarorlar qabul qila olishlari uchun muhim bo‘lsa, kompaniya har bir bunday hodisa bo‘yicha uning xarakterini ochib berishi, uning moliyaviy ta’sirini baholab ko‘rsatishi yoki baholab bo‘lmasligini qayd etishi lozim.

Juda kam uchraydigan hollarda bir yoki bir necha davrning moliyaviy hisobotlariga xatolar muhim ta’sir ko‘rsatadi, oqibatda ular chetga chiqarilishi sanasiga puxta (ishonchli) deb hisoblanishi mumkin bo‘lmay qoladi. Bunday xatolar fundamental xatolar deb ataladi (8-sonli MHXS “Davr uchun sof foyda, fundamental xatolar va shchisob siyosatidagi o‘zgarishlar”, 32-punkt). Fundamental xatolarning tuzatilishi bilan buxgalterlik baholashlarida o‘zgarishlar o‘rtasida farq bo‘lishi mumkin. Buxgalterlik baholashlar o‘z tabiatiga ko‘ra taqrifiy miqdorlar bo‘lib, qo‘sishma axborot kelib tushishi bilan ularni o‘zgartirish zaruriyati tug‘ilishi mumkin.

Fundamental xatoni xisobga olishdagi asosiy tartib avvalgi davrlardagi fundamental xatoni taqsimlanmagan foydaning boshlang‘ich qoldig‘ini tuzatish yo‘li bilan e’tiborga olishdir. Taqqoslanuvchi axborotning qayta hisoblab chiqilishi aktsiyadorlar tomonidan tasdiqlangan va tartibga soluvchi organlar tomonidan qabul qilingan moliyaviy hisobotlarning o‘zgartirilishiga olib kelishi majburiy emas. Lekin milliy qonunchilik shunday talabni quyishi mumkin. Xatolar tuzatilganda moliyaviy xisobotlarda quyidagilar ochib beriladi:

- A) fundamental xatoning xarakteri;
- B) joriy davr uchun va taqdim etilgan avvalgi davrlar uchun tuzatishlar miqdori;

V) taqqoslanuvchi axborotga kiritilgan davrlardan oldingi davrlarga taalluqli tuzatish miqdori;

G) taqqoslanuvchi axborot qayta hisoblab chiqilganligi yoki bunday qilish amalda mumkin emasligi haqidagi axborot.

8-sonli MHXS fundamental xatolarni hisobga olishning muqobil tartibiga ham ruxsat beradi. Bunda u joriy davr uchun sof foyda va zararning hisoblab chiqilishida e'tiborga olinadi. Taqqoslanuvchi axborot avvalgi davrlarning moliyaviy hisobotlarida taqdim etilishidagi kabi taqdim etilish lozim.

Hisob siyosati qonunchilik yoki hisob yuritishni standartlashtirish organlarining talabi bilangina yoki bu o'zgarish kompaniya moliyaviy hisobotlarida hodisalar va bitishuvlarning aks ettirilishining yaxshilanishiga olib kelsagina, o'zgartirilishi lozim. Quyidagilar hisob siyosatining o'zgarishlari emas:

A) ilgari sodir bo'lgan hodisalar va bitishuvlardan mohiyati bo'yicha farqlanuvchi hodisalar va bitishuvlar uchun hisob siyosatining qabul qilinishi;

B) ilgari sodir bo'lman yoki muhim bo'lman hodisalar va bitishuvlar uchun yangi hisob siyosatining qabul qilinishi.

Hisob siyosati o'zgarishining o'tmishga yoki kelajakka qo'llanishi 8-sonli MHXS talablariga muvofiq holda amalga oshiriladi. O'tmishga nisbatan qo'llashda yangi hisob siyosati xodisalar va operatsiyalarga avvaldan mavjud bo'lgan siyosat kabi, ya'ni shu xodisalar va bitishuvlar paydo bo'lgan paytdan qo'llaniladi. Kelajakka qo'llashda yangi hisob siyosati u qabul qilingan sanadan keyingi hodisalarga qo'llaniladi, o'tmishga, masalan davr boshiga taqsimlanmagan foyda nisbatan qo'llanmaydi. Lekin yangi hisob siyosati mavjud qoldiqlarga nisbatan u joriy etilgan sanadan boshlab qo'llaniladi.

Hisob siyosatidagi o'zgarishlar o'tmishdagi qo'llanishi agar avvalgi davrlarga taalluqli har qanday yakuniy tuzatishning summasi etarli darajada aniqlanishi imkonи bo'lsagina amalga oshirilishi lozim. Tuzatish hisobotda davr boshiga taqsimlanmagan foyda qoldig'ining tuzatilishi sifatida taqdim etiladi. Davr boshiga taqsimlanmagan foyda qoldig'i tuzatish summasini asosli ravishda aniqlab bo'lmasa, hisob siyosatidagi o'zgarish kelajakka nisbatan qo'llaniladi.

Agar hisob siyosatidagi o'zgarish joriy davrga yoki avvalgi hisobot davrlarining har qandayiga yoki kelgusi davrlarga muhim ta'sir etishi mumkin bo'lsa, kompaniya quyidagi jixatlarni ochib berishi lozim:

A) o'zgarishning sabablari;

B) joriy davr uchun, shuningdek taqdim etilayotgan davrlarning har biri uchun tuzatish summasi;

V) taqqoslanuvchi axborotga kiritilgan davrlardan oldingi davrlarga taalluqli tuzatish summasi;

G) taqqoslanuvchi axborot qayta hisoblab chiqilganligi yoki bunday qilish amalda mumkin emasligi haqidagi axborot.

Hisob siyosatidagi o‘zgarish boshqa usulda, ya’ni joriy davr uchun sof foyda yoki zararga kiritilgan holda ham hisobga olinishi mumkin, lekin bunda ham yuqoridagi qoidalarga rioya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. “Aktsiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” . O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 24 apreldagi Farmoni. Xalq so‘zi, 2015 yil 25 aprel.
2. Moliyaviy hisob. Toshkent, KARANA korporatsiyasi, 2006.
3. Xolmirzaev Ulug‘bek Abdulazizovich. Moliyaviy aktivlar hisobini yuritishda xalqaro standartlar qoidalarini qo‘llash masalalari. Ilmiy monografiya. Toshkent – 2023.
4. Abdulazizovich, K. U. B., & Tursunpolatovna, N. N. (2023). Improving Reflection Of Information About Cash And Equivalents In The Accounting Balance Sheet On The Basis Of International Standards. Journal of Survey in Fisheries Sciences, 10(2S), 2107-2114.
5. Abdulazizovich, X. U. B. (2023). XALQARO QOIDALAR ASOSIDA QIMMATLI QOG‘OZLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH. Interpretation and researches, 1(3), 21-27.
6. Xolmirzaev, U. A. (2020). Financial assets and improvements of their analysis. Экономика и социум, (1 (68)), 102-105.
7. Juraev, E. S., & Xolmirzayev, U. A. (2020). Supporting small business subjects by tax reforms. Экономика и социум, (1 (68)), 48-52.
8. Холмирзаев, У. А. (2022). ҚИСҚА МУДДАТЛИ ҚИММАТЛИ ҚОФОЗЛАРНИ АНАЛИТИК ҲИСОБИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. Архив научных исследований, 2(1).
9. Juraev, E., Xolmirzaev, U. A., & Rustamova, M. (2021). INCREASING THE EFFICIENCY OF REAL INVESTMENT IN THE CONDITIONS OF ECONOMIC LIBERATION. Интернаука, (21-5), 9-11.
- 10.Хакимов, Б., Талабоев, X., & Холмирзаев, У. (2021). ВОПРОСЫ УЛУЧШЕНИЯ АНАЛИЗА ОБРАЩЕНИЯ ДОЛГОВОЙ ЗАДОЛЖЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ НАПРАВЛЕНИЯ. Экономика и социум, (6-2 (85)), 441-446.

- 11.Xolmirzaev, U. A., & Juraev, E. S. (2020). Problems of improvement of debtor debt debt analysis. Мировая наука, (1 (34)), 100-105.
- 12.Juraev, E. S., & Xolmirzayev, U. A. (2019). Profits of housekeeping and its development. TRANS Asian Research Journals, 8(4).
- 13.Xolmirzaev, U., Juraev, E., & Axmadjonova, M. (2021). THE ROLE OF ACCOUNTING IN SMALL BUSINESS MANAGEMENT. Интернаука, (21-5), 20-22.
- 14.Hakimov, B., Yunusov, M., & Holmirzayev, U. (2018). Elaboration of The Balance Sheet Liquidity Analysis-Requirements of The Period. International Finance and Accounting, 100.
- 15.Khakimov, B., & Kholmirzayev, U. (2020). IMPROVING CASH ACCOUNTING AND ANALYSIS ON THE BASIS OF INTERNATIONAL EXPERIENCES. International Finance and Accounting, 2020(1), 18.
- 16.Камолов, А. А., & Холмирзаев, У. А. (2016). Малый бизнес и частное предпринимательство в Узбекистане. Вопросы экономики и управления, (5), 182-184.
- 17.Abdurahmon, K., & Abdulazizovich, K. U. (2021, December). Some Issues of Improving Securities Accounting. In Conference Zone (pp. 129-132).
- 18.Xolmirzaev, U. A., Juraev, E., & Jamgirova, G. I. (2021). APPROACH TO ACCOUNTING FOR FINANCIAL ASSETS IN THE ENTERPRISE IN ACCORDANCE WITH INTERNATIONAL STANDARDS. Интернаука, (21-5), 17-19.
- 19.Gulshirin, J., & Abdulazizovich, X. U. B. (2022, March). INCREASING THE EFFICIENCY OF INVESTMENT IN THE DEVELOPMENT OF EXPORT DIVERSIFICATION IN THE REGION. In Conference Zone (pp. 277-281).
- 20.Sirojiddinov, I., Xolmirzaev, U., & Axmadjonova, M. (2021). THE NEED AND FACTORS TO ACCELERATE THE DEVELOPMENT OF PRIVATE ENTREPRENEURSHIP. Интернаука, (21-5), 14-16.
- 21.Убайдуллаев, Т., & Холмирзаев, У. (2019). ФАКТОРЫ И ТЕНДЕНЦИИ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА. Мировая наука, (1 (22)), 299-302.
- 22.Abdulazizovich, K. U. (2022). IMPROVING METHODOLOGICAL APPROACHES TO FINANCIAL ASSET ACCOUNTING. INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876, 16(4), 56-62.
- 23.Kamolov, A. A., & Xolmirzayev, U. A. (2018). Economic Laws And Categories. Экономика и социум, (2 (45)), 34-36.

24. Abdulazizov, K. U., Sherzod, I., & Abdulkhodinevna, S. M. (2022). IMPROVING THE METHODOLOGICAL BASIS OF ACCOUNTING FOR FINANCIAL ASSETS. INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11, 34-39.
25. Abdulazizovich, X. U. B., Qutbiddinovich, S. I., & Sobirjon o'g'li, J. E. (2021). POSITIVE ASPECTS OF THE CASH METHOD IN SMALL BUSINESSES IN A PANDEMIC ENVIRONMENT. American Journal of Economics and Business Management, 4(3), 1-8.
26. Abdulazizovich, K. U. IMPROVING THE REFLECTION OF MONEY AND CASH EQUIVALENT IN THE ACCOUNTING BALANCE. Dear Academicians & Research Scholars, 55.
27. Kamalov, A. A., & Xolmirzayev, U. A. (2016). Small business and private entrepreneurship in Uzbekistan. Questions of Economics and Management, 5(7).
28. Kholmirzaev, U. B. A., & Ubaydullayev, T. A. (2023). IMPROVING THE CLASSIFICATION OF FINANCIAL ASSETS ACCORDING TO THE ECONOMIC CONTENT. Educational Research in Universal Sciences, 2(1), 203-209.
29. Qutbiddinovich, S. I., & Abdulazizovich, X. U. B. (2023). GAAP ASOSIGA QO'YILGAN MOLIYAVIY HISOB KONTSEPTSIYALARI. Interpretation and researches, 1(3), 42-50.
30. O'g'li, J. E. S., & Abdulazizovich, X. U. B. (2019). Profits of housekeeping and its development. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 8(4), 419-423.
31. Juraev, E. S., & Xolmirzayev, U. A. (2020). Supporting small business subjects by tax reforms. Экономика и социум, (1 (68)), 48-52.
32. Ogli, I. S. H., & Oglu, O. I. A. Peculiarities of the Development of Industrial Production in Namangan Region. Volume, 9, 544-547.
33. O'G'LI, I. S. X. (2022). TENDENCIES OF INDUSTRIAL DEVELOPMENT IN NAMANGAN REGION. INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES.
34. Иброгимов, Ш. (2022). ПРОМЫШЛЕННОЕ ПРОИЗВОДСТВО НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ. Экономика и социум, (2-2 (93)), 634-640.
35. Ibrogimov, S. (2021). DIGITAL ECONOMY AND FACTORS OF ITS DEVELOPMENT IN THE CONDITIONS OF PANDEMIC IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. INTERNATIONAL ENGINEERING JOURNAL FOR RESEARCH & DEVELOPMENT.

- 36.O'G'LI, I. S. X. (2021). Фермер хўжаликларида ишлаб чиқариш харажатлари хисоби. NamMTI ilmiy-texnika jurnali.
- 37.Abdumalik o'g'li, M. M. (2022). EVALUATION OF COMPETITIVENESS IN THE MARKET OF GOODS IN INDUSTRIAL ENTERPRISES. INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(10), 86-92.
- 38.Sirojiddinov, I. Q., & Abdumalik o'g'li, M. M. (2022, June). SIGNS AND APPEARANCE OF ECONOMIC HELPLESSNESS. In Conference Zone (pp. 8-14).
- 39.Xakimovich, U. D. (2022). ANALYSIS OF FINANCIAL SUSTAINABILITY ANALYSIS OF BUSINESS PROCESSES IN THE BUSINESS PROCESS. INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(05), 143-148.
- 40.Nasirova, N. (2023). KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVASION MARKETINGDAN SAMARALI FOYDALANISH. Interpretation and researches, 1(3), 28-34.
- 41.Tursunpolatovna, N. N. (2022). NEED AND DUTIES OF ACCOUNTING IN BUSINESS ENTITIES. INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876, 16(11), 8-12.
- 42.Арипов, О. А., & Обиджонов, А. М. (2021). ВОЗНИКНОВЕНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ В СТРОИТЕЛЬСТВЕ.
- 43.Abdullaevich, A. O. (2023). INSON KAPITALINI RIVOJLANISHIGA DOIR MULOHAZALAR. Interpretation and researches, 1(3), 13-20.
- 44.Aripov, O. (2017). Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликда аёлларнинг ўрни. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, (3), 254-261.
- 45.Abdullayevich, A. O. (2022). OPPORTUNITIES FOR SUSTAINABILITY OF SMALL BUSINESS ENTERPRISES ON THE BASIS OF IMPROVING THE BUSINESS ENVIRONMENT IN UZBEKISTAN. INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11, 83-87.
- 46.Арипов, О. А. (2018). Ўзбекистонда ишбилармонлик мухитини яхшилашдаги ташкилий-ҳуқуқий сайд-харакатлар. Экономика и финансы (Узбекистан), (5), 18-25.
- 47.Xolmirzayev, A. X. (2021). RISK FACTORS AND UNCERTAINTIES IN THE ECONOMY. Мировая наука, (2), 24-27.

- 48.Kholmirzaev, A. K. (2021). Criteria and directions of development of small business activities. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(6), 730-735.
- 49.Kholmirzaev, A. (2020). Ways of small business development. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 9(11), 162-167.
- 50.Yuldashev, Q. M., Tursunov, N. N., & Kholmirzaev, A. X. (2020). Analysis of small business and private entrepreneurship in the development of the economy of the republic of Uzbekistan. *South Asian Journal of Marketing & Management Research*, 10(8), 60-67.
- 51.Юлдашев, К. М., & Холмирзаев, А. Х. (2019). Осуществление реализации механизма частного партнерства в Узбекистане. *Молодой ученый*, (51), 435-437.